EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI

Toyirova Shohista Bobobekovna
“Ipak yo’li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti
doktorantura talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ekologik turizmning jamiyat va tabiatning o’zaro munosabatlaridagi ahamiyati va ekoturizmning barqarorlik talablariga qay darajada javob berishi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Ekologik turizmni qanday usullar bilan tashkillashtirilganda ijobiy natijaga erishish mumkinligi to’g’risida ekologik turizmni samarali yo’lga qo’yib, bu sohada yutuqlarga ega bo’lgan hududlar misolida yoritib berilgan. Maqolada aynan bir hudud bilan cheklanmasdan, bir qator manzillar keltirilib, bu sohada sohaning rivojlanishda turlicha yondashish mumkinligi ko’rsatib o’tilgan.

Kalit so’zlar: Ekologik turizm, mahalliy aholi, tabiatni muhofaza qilish fondi, Jahon yovvoyi tabiat fondi, ekoturistik loyihalar

Ekologik turizm tabiiy hududlarga tashrif buyurish, shaxsiy rivojlanish, mahalliy aholining turmush darajasining rivojlanishi, tub aholi huquqlari va madaniyatini hurmat qilish ko’rinishidagi turizm turidir. Ekologik turlarning tashkil etilishida barqarorlik talablariga rioya etish talab etiladi. Turizmning bu turida qimmatbaho restoranlar va mehmonxonalar o’rniga mahalliy aholi tomonidan taqdim etiladigan uylarda yashash taklif etiladi. Atrof-muhitga zaharli gazlar chiqaruvchi transport vositalari o’rniga velosiped, otlar, fillar kabilardan foydalanish ma’qul ko’riladi. Ko’p hollarda tabiatga zararni kamaytirish uchun piyoda yurish qo’llab-quvvatlanadi [1,B4] Mintaqada istiqomat qiluvchi aholining doimiy ish bilan ta’minlanishida ekologik turizmning o’rni beqiyos. Ekologik turizm bugungi kunda ko’plab insoniyat kelajagiga tahdid solayotgan muammolarga eng maqbul yechimlardan biri sifatida qaralmoqda. Dunyo bo’ylab sut emizuvchilarning, qushlar va boshqa noyob turlarning yer yuzidan yo’qolib ketishini oldini olishda ekoturizm muhim ahamiyatga

kasb etadi. Ekologik turizm-bu inson faoliyatinig salbiy ta’siri sezilmagan tabiiy hududlarga tashrif buyurishdir. Odatda ekoturistlar ma’lum bir maqsadlarga asoslanib, ushbu turizm turidan foydalanishadi. Ularning tabiiy hududlarga tashrifdan maqsadlari quyidagicha bo’lishi mumkin:

*tabiat go’zalligidan bahra olish

*ko’pchilik ko’rishga ulgurmagan hududlarni o’zi uchun kashf qilish

*noyob o’simlik va hayvon turlarini izlab topish

*fanga noma’lum hayvon va o’simlik turlarini o’rganib, ular haqida ma’lumot top’lash

*turli ilmiy tadqiqotlar olib borish

Ekologik turizm inson va tabiat munosabatlarini rag’batlantiruvchi vositadir. Ekologik turizm turizmning boshqa turlaridan farqli ravishda olingan foydaning katta qismi asosan hudud tabiatining asl holatini saqlab qolishga va tub aholining turmush tarzini yaxshilashga qaratiladi. Ekologik turizmning to’g’ri boshqarilishi mahalliy aholining sohaga maksimal darajada jalb qilinishiga bog’liq[2, B.5] Ekoturizmning to’g’ri tashkillashtirishda aholining ekoturizm haqidagi tushunchaga va yetarlicha bilimga ega bo’lishlarini ta’minlash zarur. Tashkiliy ishlarning yana bir muhim jihati o’zaro fikrlar, g’oyalar almashishga imkoniyat yaratilishi sohaning rivojlanishiga ijobiy ta’sir etadi.

Turizm sohasi boshqa ko’plab iqtisodiy sohalar kabi tabiiy resurslarga tayanadi. Tabiiy resurslar turist ehtiyojlarini qondirish va sohani rivojlantirishda o’ta muhim ahamiyatga ega. Slovakiyaning Koshits viloyatida EkoVeloTour loyihasi ishlab chiqilib, barqaror turizmga o’zining ijobiy hissasini qo’shdi [3, B.5] Ushbu strategiya ekoturizm va yashil harakatchanlik tadqiqotlariga asoslangan. Bu harakat viloyatda ekoturizmni sezilarli darajada jonlantirishga sabab bo’ldi. Ushbu loyiha boshqa bir qator loyihalarda keltirilgan bilimlarni o’zaro almashish asnosida tashkil etildi. Loyiha asosan tabiatni kuzatishda velosipeddan foydalanishni targ’ib qildi.

Ekologik turizm tabiatga yetkaziladigan zarar miqdorini kamaytirishga va barqaror turizmni rivojlantirishga yordam beradi. Hudud aholisi o’zning asrlar davomida asrab kelayotgan madaniayti va urf-odatini, o’ziga xos turmush tarzini

turistlarga bor holicha ko’rsatish imkoniyatini beradi. Olingan daromad mintaqada maktablar, sog’liqni saqlash xizmatlarining yaxshilanishiga, ichimlik suvi bilan bog’liq bi’lgan muammolarning bartaraf etilishi va aholining turli loyihalarini qo’llab-quvvatlashga qaratiladi. Bunday ijobiy o’zgarishlar ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlat iqtisodiyotida juda muhimdir.

Aynan biologik xilma-xillikni asrab qolish uchun dunyo mamlakatlari turli ekologik turizm loyihalariga maxsus grantlar taqdim etilib, tabiatni asrash fondlari tashkil etilmoqda. Ekologik turizmning beqiyos ahamiyati sabab barcha mamlakatlar o’zinining ekologik turizmni rivojlantirish bo’yicha strategiyalarini ishlab chiqqan. Amerika qit’asi mamlakatlari bu borada yetakchilikni bermay kelmoqda.

Amerika ekologik turizmni rivojlantirish uchun barcha imkoniyatga ega: geografik qulay hududlar, ushbu hududlardagi tabiiy resurslar, bir-birini takrorlamas o’simlik va hayvonot dunyosi. Janubiy Amerikadagi dastlabki ekoturizm manzillari Braziliya Amazoni va Ekvadordagi Galapagos orollari edi [2,B.7] Ekologik turizmning mukammal boshqarish strategiyalari sabab bu hududlar bugungi kunga qadar o’z qadrini saqlab kelmoqda. Ekologik turizmni rivojlantirishning eng muhim talablaridan biri milliy bog’larning tashkil etilishi hisoblanadi. Masalan, Ekvadorning eng muhim turizm mahsuloti Galapagos Orollari Milliy Parki va dengiz qo’riqxonasidir. U Jahon merosi obyekti va Dunyo Biosfera qo’riqxonasi hisoblanib, 1993-yilgi kirish chiptalari narxlarining oshirilishi ham u yerga tashrif buyuruvchilarning sonini kamayishiga ta’sir qilmadi. Hozirda qit’aning Pantanol tropik botqoqligi tabiat shinavandalari e’tiborini tortuvchi o’ziga xos yovvoyi tabiatga ega bo’lib, u yerda mukammal qishloq fermasi tashkil etilgan. Bu yerda mehmonlar tabiatdan bahra olish bilan bir qatorda qishloq xo’jaligi yumushlarini tajriba sifatida bajarib ko’rish imkoniyatiga ega bo’lishadi. Janubiy Amerikaning Braziliya davlati ekoturizmni rivojlantirishda kadrlar masalasiga alohida ahamiyat beradi. Insonlarning yetarli bilimga ega bo’lishi soha rivojida muhim omil hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda sezilarli foyda keltirgan tijorat sohasi bilan hamkorlik loyihalarini yo’lga qo’ydi. Janubiy Amerikadagi boshqa davlatlar o’zlarining tropik o’rmonlari, And tog’lari, ko’plab suv havzalari va undagi

mavjudotlarini ekoturizm resursi sifatida turizm sohasida ulkan yutuqlarga erishishmoqda. Janubiy Amerikaning Beliz va Kosta Rika hududlari o’tgan o’n yillikda dunyoning ekologik turizm timsoli sifatida tan olinib, hozirgi kunda ham sohaning yetakchi manzillari sirasiga kiradi. Kosta Rikaga tashrif buyuruvchilarning 2/3 qismi ekologik turlarni ma’qul ko’rishadi [2,B.7] Natijada hududning betakror tabiatini asrab qolishda bu holat yetarlicha imkoniyat yaratdi. Xalq tomonidan boshqariladigan Babuin jamoat qo’riqxonasi Jahon yovvoyi tabiat fondi bilan hamkorlikda qator loyihalar ishlab chiqishib, bajarilayotgan ishlarga asosan tub aholi jalb qilindi. 120 nafar yer egalari va jami 8 ta qishloq ekologik turizm faoliyati bilan shug’ullanishariga imkoniyat yaratildi va ekologik turizm sohasining rivojlanishining dastlabki omillaridan biri bo’ldi.

2018-yilga qadar Indoneziyada ekoturizmning eng muhim omillaridan hisoblangan muhofaza qilinadigan hududlar va milliy bog’lar davlat nazorati ostida edi va mahalliy aholining ishtiroki cheklangan edi. Ammo 2004-yilda barpo etilgan Bukit Duabelas milliy bog’i bundan mustasno. Ushbu bog’ shu yerda istiqomat qiluvchi aholi tomonidan boshqarilishi kafolatlangan edi. Buning asosiy sababi aholining milliy bog’ egalari tomonidan mahalliy xalqning o’rmonlar borasidagi bebaho bilimga egaligi edi[4,B4] Shunday ekan, milliy bog’ egalari, hududda yashovchi aholi va tadbirkorlarning o’zaro hamkorligi doimo manfaatli bo’lgan. Bu o’z navbatida sohaning rivojlanishiga zamin yaratadi. Misol tariqasida Indoneziyaning Sumatra orolini keltirish mumkin. 2000-2012-yillar oralig’ida mahalliy aholining bog’ egalari va tadbirkorlarning hamkorligi natijasida olib borilgan tadqiqotlar hudud tabiati deyarli zarar ko’rmaganligini ko’rsatdi.

Ekologik turizm faoliyati bilan shug’ullanuvchi tashkilotlar amaliy tajribalar hamda ma’lum muddatli turlar tashkil etishlari foydali hisoblanadi. Bu jamiyatning barqaror rivojlanishida ta’lim sifatini oshirishga ham zamin yaratadi. O’z faoliyatlari davomida tashkilotlar tabiiy resurslarining foydalanish me’yorlariga ayniqsa, ichimlik suviga e’tiborli bo’lishlari zarur. Olib borilayotgan faoliyatdan tabiat hech qanday zarar ko’rmasligi talab etiladi. Jahon tabiatni muhofaza qilish kongressi

rezolyutsiyasiga ko’ra ekoturizm faoliyatini samarali yo’lga qo’yishning 4 ta strukturaga diqqatni qaratishni zaruriyat qilib qo’ydi. Bular:

*qashshoqlikni kamaytirish

*ochlikka barham berish

*aholi salomatligi va turmush tarzining yaxshilanishi

*tengsizlikka chek qo’yish

Tashkilotlar oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash barobarida ovqatlanish holatini yaxshilash orqali aholi salomatligiga ta’sir ko’rsatishlari talab etiladi. Ekologik turizm tushunchasi faqat tabiatni asrash bilan cheklanmasdan ma’lum hududda yashovchi aholining turmush darajasini ko’tarishda ham ko’maklashadi. Shunday ekan turizmning bu sohasi to’g’ri boshqarilganda atrof-muhit muhofazasiga, ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlikka erishiladi. Tayvand ekoturizmida ijobiy natijaga erishishda quyidagi masalalarni o’z oldiga maqsad qilib qo’ydi:

a) Ekologik turizm jihatlarini kengroq targ’ib qilish uchun malaka osjirish kurslarini tashkil etish;

b) Ekologik turizm faoliyatini ishlab chiqarish bilan hamorlikka chaqirish;

c) Ekologik turizmni rivojlantirishni maqsad qilgan barcha tashkilotlar faoliyatini bitta platformaga birlashtirish;

d) Ekologik turizm faoliyatini yaxshilashda sertifiktlashtirish va baholash dasturini yaratish;

e) Xalqaro turizm talablariga javob ber olish uchun xalqaro hamkorlikni yo’lga qo’yish

Hozirda dunyoda 200 dan ziyod yashil maqomini beruvchi sertifikat va ekoturizm faoliyati bilan shug’ullanish imkonini beruvchi sertifikatlar mavjud bo’lib, ular tashkilotlarning va kompaniyalarning o’ziga xos maqsadlariga yo’naltirilgan[5,B11] Ushbu sertifikatlar ularga atrof-munitni va madaniyatlarni himoya qilishda boshqaruv narxlarini belgilash va kompaniya imidjini yaratishning o’zgacha yondashishlariga ko’maklashadi. Jahon tabiatni himoya qilish kongressi rezolyutsiyasiga ko’ra ekologik turizm istiqboli 3 muhim baholash mezoniga asoslangan bolib, ular quyidagilardir:

-Resurslarni asrash, tabiatga ziyon keltirmaydigan binolar va infrastruktura

-Joriy etilgan qonun va qoidalarga rioya qilish, moliyaviy sug’urta, barqaror boshqarish strategiyalariga ega bo’lish, boshqaruv birliklarining mavjudligi, monitoring guruhini tashkil etish, iqlim o’zgarishlarini kuzatib borish strategiyalariga ega bo’lish, tegishli qonun-qoidalarni joriy etish, inqiroz va favqulodda vaziyatlarni boshqarish, tashrif buyuruvchilarning ehtiyojlarining qondirilishi, marketing ma’lumotlar bazasini shakllantirish, intellectual mulkni himoya qilish

-Faol tabiat boshqaruvi tizimini joriy qilish, yashil maqomidan foydalanish, qattiq chiqindilar boshqaruvi, energiyani boshqarish, shovqin va havo sifatini boshqarish, zaharli gazlarni nazorat qilish boshqaruvi, ta’sir doirasi kam transport vositalarini joriy qilish, yovvoyi tabiatni himoya qilish

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Najibullah M., Shafiullah G., Stanikzai H. (2020) a Review of Ecotourism and its economic, environmental and social impact.

2. Huang C.,(2022). Preliminary Research on the Sustainable Determinants of Taiwanese Ecotourism with the International Standards. International Journal of Environmental Research and Public Health

3. Jurkova L.,(2020). Strategy of Ecotourism in Ko’sice Region .Danube Transnational Program

4. Wiratno W.,(2022). Ecotourism as a Resource Sharing Strategy: Case Study of Communication-Based Ecotourism at the Tangkahan Buffer Zone of Leuser National Park, Langkat District, North Sumatra, Indonesia. Sustainability

5. Wight A.(2002). Ecotourism in the Americas in the International Yearof Ecotouism